

YANGI O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT” NI SHAKLLANTIRISH

Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna

CHDPU Pedagogika fakulteti Menejment yo‘nalishi 24-1 guruh talabasi

sayfiddinovasabina888@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotning yangi rivojlanib kelayotgan tarmog‘i hisoblanadigan, „Yashil iqtisodiyot“ va uning afzalliklari, davlat iqtisodiyotiga, fuqarolar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatli jihatlari to‘g‘risida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, taraqqiyotlar strategiyasi, ekologik iqtisodiyot, iqlim o‘zgarishi.

Abstract: In this article, the "Green economy", which is a newly developing branch of the modern economy, its advantages, its role in the state economy, and its importance in the life of citizens is briefly described.

Key words: green economy, development strategy, ecological economy, climate change.

Аннотация: В данной статье кратко описывается «Зеленая экономика», являющаяся новой развивающейся отраслью современной экономики, ее преимущества, ее роль в экономике государства, ее значение в жизни граждан.

Ключевые слова: зеленая экономика, стратегия развития, экологическая экономика, изменение климата.

Kirish

Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, ekologik xavf va tanqislikni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, hozirda rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar ijtimoiy qatlam hayoti va albatta davlat iqtisodiyoti uchun ham zarur bo‘lgan tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida, „Yashil iqtisodiyotni“ rivojlantirish maqsadida 2019-yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o‘tkazildi.

Xususan, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan „Harakatlar strategiyasi“ da, „Yashil iqtisodiyot“ ga o‘tishini ta‘minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish, yashil iqtisodiyotni tashkil qilish va jadal rivojlantirishda, barqaror o'sishni ta'minlashda, yangi strategiya va bilimlarni almashishda alohida o'rin tutadi[1].

Mamlakatda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Aholi sonining ortishi bilan resurslarga bo'lgan ehtiyoj va tanqislik ham ortmoqda, korxonalardan tomonidan chiqarilayotgan zaharli gazlar ekologiya va atrof-muhitning yomonlashuviga olib kelmoqda.

Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Ushbu masalalarni hal qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va qonun-qoidalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarga mo'ljallangan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi. Unda, "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishning quyidagi vazifalari belgilandi:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- davlat investitsiyalari va xarajatlarning ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;

- davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

- ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish;

- "yashil" iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash[2].

Yashil iqtisodiyotga o'tish albatta har bir davlat iqtisodiyoti taraqqiy etishi uchun zarurdir. Ammo har bir millatning o'ziga xos strategiya mavjud bo'lishi kerak,

ushbu strategiyalar davlat millati, iqtisodiy va ijtimoiy holati, rivojlanganlik darajasiga ko'ra tashkil qilinsa albatta maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan.

Milliy shaffoflik konsepsiyasi quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ issiqxona gazlarini xatlovdan o'tkazish qamrovi va sifatini oshirish hamda ushbu jarayonga barcha manfaatdor tomonlarni keng jalb qilish;

- ✓ respublika sharoitlariga moslashtirilgan monitoring, hisobot berish va tekshirish tizimini ishlab chiqish, shu jumladan, iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha respublikaning maqsadlari va ko'rsatkichlarini shakllantirishga ko'maklashish;

- ✓ issiqxona gazlari emissiyasini xatlovdan o'tkazish, istiqboldagi emissiya hajmlarini turli ssenariylarda prognoz qilish va iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish maqsadlari bilan o'zaro muvofiqlikni ta'minlash;

- ✓ milliy moslashuv rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublika sharoitlariga moslashtirilgan monitoring, hisobot berish va baholash tizimini, shu jumladan, milliy maqsadlarga erishishni kuzatish uchun indikatorlar va maqsadli ko'rsatkichlarni ishlab chiqish;

- ✓ iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va unga moslashishga doir axborotlarni e'lon qilish orqali keng jamoatchilikni xabardor qilish;

- ✓ batafsil ma'lumotlarni talab qiluvchi uglerod qiymatini (narxini) belgilash mexanizmlari, emissiya savdosi va uglerod solig'i kabi "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash;

- ✓ manfaatdor tomonlarga ularning ishtirokini soddalashtirish uchun ma'lumotlarni taqdim etish, hisobot beruvchi tashkilotlarga o'zlarining iqlimga doir xatarlari va imkoniyatlarini baholashda yordam berish[3].

Amalda mavjud bo'lgan iqtisodiy tizim ya'ni bir necha yuz yillar mobaynida davom etib kelayotgan ishlab chiqarish tizmi yanada takomillashib, zamonaviy ko'rinishga kirgan. Ushbu tizimda asosan tabiat resurslari asosiy kapital vazifasini bajaradi. Korxonalardan, zavod va mashinalardan chiqayotgan gazlar sababli ekologiya yomonlashib, havo zaharlanib bormoqda. Resurslardan oqilona foydalanmaslik kelajak avlod hayoti uchun qiyinchilik va tanqislik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Zaharli havo esa inson organizmiga asta-sekin singib surunkali kasalliklar kelib chiqishiga olib keladi. Hatto ayrim hollarda avloddan-avlodga o'tib, farzandsizlikka ham sabab bo'lyabdi. Bilamizki, har bir fuqaro bir ishchi kuchi demakdir, ishchi kuchi mavjud bo'lmagan yoki tanqis bo'lgan

tadbirkorlik faoliyati harakatdan to'xtaydi, tadbirkorlik rivojlanishdan to'xtasa iqtisodiyot ham ortda qoladi. Yashil iqtisodiyot esa aynan mana shunday muammolarni bartaraf qilish uchun zarur.

Yashil iqtisodiyot taksonomiyasi tasdiqlash to'g'risidagi qarorda sektorlar bo'yicha hozirda mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha bosqichma-bosqich belgilab qo'yilgan chora-tadbirlardan namuna:

1. Suv va xomashyolardan foydalanish samaradorligi:

Toza suv iste'molini maishiy va ichimlik ehtiyojlari uchun kamida 30 foizga, sug'orish uchun 20 foizga hamda sanoat va texnik ehtiyojlar uchun 40 foizga kamaytirish;

Tozalangan suvdan ikkilamchi foydalanish;

Amaldagi sanitariya talablari mosligi, texnik suv uskunaning pasportlariga mosligi;

Aqlli avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari joriy etilishi;

Emissiyalar BREF ma'lumotnomalarida anaerob chiqindilarni qayta ishlash uchun belgilangan mavjud eng yaxshi texnologiyalar (BAT-AELs) bilan bog'liq emissiyalar darajasidagi diapazonlar ichida joylashgan;

Yig'ilgan ikkilamchi xomashyoni kamida 80 foiz qayta ishlash;

Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mavjud eng yaxshi texnologiyalar ma'lumotnomasi (BREF) talablarining chiqindilarni va yon mahsulotlarni, ayniqsa xavfli sanoat chiqindilarini boshqarish qismiga muvofiqligi.

2. Havo va tuproq sifatini yaxshilash

Emissiyalar bo'yicha mavjud eng yaxshi texnologiyalar ma'lumotnomasi (BREF) talablarining chiqindilarni boshqarish qismiga muvofiqligi;

Issiqxona gazlari chiqindilarini kamida 20 foizga kamaytirish;

Emissiyalar BREF ma'lumotnomalarida belgilangan mavjud eng yaxshi texnologiyalar (BAT-AELs) bilan bog'liq emissiyalar darajasidagi diapazonlar ichida joylashishi;

suvdan ikkilamchi foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya sarfini kamida 20 foizga kamaytirish;

Organik mahsulotlar uchun tegishli xalqaro, davlatlararo yoki milliy standartlar, shuningdek, sotib olingan organik yoki yashil mahsulotlarni yorliqlash[4].

Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutq so'zladi. Unda davlatimiz rahbari: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib

borayotgani jiddiy xavotir uygʻotmoqda. Bugʻlanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali boʻlishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yoʻq”, deb taʼkidladi.

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak, yashil iqtisodiyot tizimini toʻliq yoʻlga qoʻyish orqali biz bir necha foydalarga erishishimiz mumkin. Xususan,

- ✓ Aholi farovonligini, yashash darajasini oshirish va moddiy resusrlar bilan yetarlicha taʼminlash;

- ✓ Ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirishv jamoat transportini elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish;

- ✓ Atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish;

- ✓ Neʼmatlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham koʻrish;